
XOTIN-QIZLAR TADBIRKORLIKKA O'QITILMOQDA

Bugun, 28 iyul kuni O'zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi Farg'ona viloyati Oltiariq tuman bo'limining Ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish markazi, Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash markazi hamda xotin-qizlar tadbirkorlik markazlarining ish faoliyatlari o'rganildi.



Unda viloyat hokimi o'rinbosari Komila Kavlonova hamda mahallalardagi xotin-qizlar faollari, tadbirkor ayollar ishtirok etdi.

Shu kuni markazlardagi o'quv-kursini xotin-qizlarni tadbirkorlikka o'qitish bo'yicha tamomlagan 80 nafar xotin-qizlarga sertifikatlar topshirildi.



Shuningdek, nikohlanuvchi shaxslarni oilaviy-huquqiy munosabatlarga tayyorlash, oilaviy hayot psixologiyasi, oila iqtisodi va byudjeti, reproduktiv salomatlik asoslari, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash masalalari bo'yicha ish olib borilib 168 nafar yoshlar o'qitilgani alohida ta'kidlandi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#)

2022-07-28 16:02:26